

SUN'Y INTELLEKT DAVRIDA TARJIMONNING O'RNI VA KASB KELAJAGI

Xolmamatova Nurgul Ortiq qizi,

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti talabasi,

nurgulxolmamatova07@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ernazarova Nargiza Xidirovna

Ingliz tili amaliy tarjima kafedrası katta o'qituvchisi,

nargizaernazarova1111@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanayotgan davrida tarjima jarayonlarida tarjimonning o'rni va kelajagi tahlil qilinadi. Maqolada tarjima vositalarining imkoniyatlari hamda ularning cheklovlari yoritilib, tarjimonlik kasbiga bo'lgan ehtiyojning qanday o'zgarayotgani ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tarjima, tarjimonlar, asliyat matni, avtomatlashtirish, iboraviy birikmalar, mazmunning uyg'unligi.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и перспективы профессии переводчика в процессе перевода в эпоху стремительного развития технологий искусственного интеллекта. Рассматриваются возможности и ограничения переводческих инструментов, а также показывается, как меняется спрос на профессию переводчика.

Ключевые слова: искусственный интеллект, перевод, переводчики, оригинальный текст, автоматизация, фразеологические единицы, согласованность содержания.

Annotation. This article explores the role and future prospects of translators in the translation process during the rapidly developing era of artificial intelligence technologies. It examines the capabilities and limitations of translation tools and highlights how the demand for the translation profession is changing.

Key words: *Artificial Intelligence, translation, translators, original text, automation, idiomatic expressions, content coherence.*

Bugungi tez sur'atlarda o'zgarib borayotgan zamonaviy davrda texnologiyalar deyarli barcha sohalarga chuqur kirib kelayotgani yaqqol sezilmoqda. Har bir qadamda raqamli tizimlar, avtomatlashtirish va sun'iy intellektning keng qo'llanilishi ko'plab kasblarning ahamiyatini qayta shakllantirmoqda. Ba'zi sohalarda texnologiyalar inson mehnatini ancha yengillashtirayotgani, hatto uning o'rnini bosayotganini ham ko'ramiz. Biroq shunday kasblar borki, ular inson tafakkuri, his-tuyg'usi va madaniy ustuvorlik talab qilgani uchun to'liq sun'iy intellektga almashtirib bo'lmaydi. Shular qatorida tarjimonlik kasbi alohida o'rin tutadi. Chunki tarjima jarayoni nafaqat til qoidalarini bilishni, balki matnning mazmunini chuqur anglash, madaniy jihatlarni his qilish va iborali birikmalarda ma'noni aniq yetkazishni talab etadi.

Bugungi kunda har sohada amalga oshirilayotgan raqamlashtirish islohotlari har bir sohaning rivojlanishiga va o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Sun'iy intellektning rivojlanishi tarjima jarayonlariga sezilarli o'zgarishlar olib kirdi. Avvalo, Google Translate, DeepL, Chat GPT kabi tarjima vositalarining keng qo'llanilishi tarjimonlar faoliyatini yengillashtirdi, chunki oddiy matnlar, texnik hujjatlar yoki katta hajmdagi matnlarni tezkor tarzda qayta ishlash mumkin bo'ldi. Bu esa tarjimonlarning vaqt va energiyasini tejab, murakkabroq, tahliliy yondashuvni talab qiladigan matnlarga chuqurroq e'tibor qaratishlariga imkon yaratdi. Biroq bu jarayon tarjimaning to'liq avtomatlashtirilishi mumkin degani emas. Chunki sun'iy intellekt tilning ichki ruhini, yashirin ma'nolarini, madaniy kontekstlarni to'laqonli anglay olmaydi. Shu bois, inson tomonidan bajariladigan ijodiy va analitik tarjima hali ham muhim o'rinni egallab turibdi.

Tarjima jarayonida shakl va mazmunning uyg'unligini saqlab qolish uchun tarjimonning bilim va ko'nikmalari kerak bo'ladi [1]. Masalan, manba matnning janrini maqsadini va auditoriyasini chuqur tushunish, ayniqsa, asliyat matnidagi so'zni

tarjima matniga madaniyat va anʼanalarga eʼtibor bergan holda qaysi ekvivalentlik ustuvorligini aniqlashda tarjimonning mahorati lozim. Tarjimaning nafaqat maʼno jihatdan toʻgʻriligini, balki maqsadli tilda tabiiy va samarali ekanligini tekshirish tarjimon tomonidan bajariladi. Sunʼiy intellektda esa bunday qobiliyat yoʻq. U berilgan matnni toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qiladi va baʼzida katta xatoliklarga ham yoʻl qoʻyishi mumkin. Qadimdan tarjimonlarga “ Ikki xalq orasidagi koʻprik ” deya taʼrif berilgan va koʻzga koʻrinmas kichik xato ham katta muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Ikkinchidan, taʼkidlaganimizdek, sunʼiy intellekt vositalari vaqtni tejash kabi bir qancha qulayliklarni yaratsada, biroq barcha qulayliklariga qaramay, sunʼiy intellekt asosidagi tarjima vositalari hali ham bir bir qator cheklovlarga ega. Jumladan iboraviy maʼnolarni toʻgʻri tushunishda, madaniy konteksni aniqlashda, koʻp maʼnoli soʻzlar bilan ishlashda va emotsional ohangni aniq yetkazishda xatoliklarga yoʻl qoʻyadi [2]. Masalan, oʻzbek tilidagi xalqona iboralar yoki oʻziga xos madaniy ishoralarni boshqa tilga mos holda berish faqat inson tarjimoni orqali toʻgʻri amalga oshiriladi. Tarjima jarayonida asliyat va tarjima matnining boʻlimi hamda mazmuni bir-biriga aynan mos kelishi talab qilinadi. Tillardagi farqlardan yana biri bu uning grammatik strukturasi hisoblanib, turli tillarda u turlicha boʻladi masalan baʼzi oʻzbek, turkiy kabi tillarda SOV strukturasi va SVO strukturasi masalan rus tili ingliz tili kabilar hisoblanadi [3].

Uchinchidan, tarjimonlikning kelajagi sezilarli darajada yuksalmoqda. Global aloqalarning kengayishi, xalqaro hamkorlikning ortishi, ilm-fan va iqtisoddagi integratsiya jarayonlari malakali tarjimonlarga boʻlgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Har bir madaniyatning oʻziga xosligi, tilning nozik jihatlari va inson muloqotiga xos emotsional ifodalar sababli tarjima faoliyatini toʻliq avtomatlashtirish deyarli imkonsiz. Aksincha, sunʼiy intellekt tarjimon ishini yengillashtiruvchi va toʻldiruvchi vosita sifatida shakllanib, inson tarjimoni bilan hamkorlikda yanada sifatli natijalar yaratish imkonini bermoqda. Sunʼiy intellekt tezkor ishlaydi, inson esa sifati, mazmuni va aniqligini nazorat qiladi. Tarjima vositalari grammatik xatolarga yoʻl qoʻyishi mumkin va tarjimon qayta tahlil qilgan holda bunday muammolarni tuzatib

tarjima matnini yaxshilaydi [4]. Bu nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajriba va til farqlarini chuqur anglashni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tarjimonlik kasbi sun'iy intellekt rivojlanishiga qaramay, yo'qolmaydi, balki undan unumli foydalanish, inson tafakkuri va texnologiya imkoniyatlarini birlashtirish kabi yangi kompetensiyalar orqali professional darajaga ko'tarilib, inson va texnologiyaning uyg'un hamkorligi asosida kelajakda yanada samarali ko'rinishga ega bo'ladi. Demak, tarjimonlik kelajak kasblari qatorida o'z o'rnini saqlab qoladi va yanada rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.U.R.Yo'ldoshev.Tarjima nazariyasi.O'quv qo'llanma .-Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti,2021.-126 bet
- 2.Komilova Sh. (2024, noy 20). Zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb muammolari. "Tarjimashunoslik - muammolar yechimlar va istiqbollar II " mavzusidagi xalqlar ilmiy-amaliy anjuman.
3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15599191>
4. <https://orcid.org/0009-0002-9478-7045>.